

## **GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING ILMIY- METODOLOGIK IMKONIYATLARI**

---

**Jumayeva Mahbuba O‘ktam qizi- TerDPI “Pedagogika nazariyasi va tarixi”  
mutaxassisligi II kurs magistranti**

**Annotatsiya.** Yoshlarimizda turli xil yot va zararli g‘oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni yanada rivojlantirish, ularni turli xil g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish orqali taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog‘lom, barkamol avlodlarni tarbiyalab voyaga yetkazish lozim. Shundagina biz istiqbolda ma’naviy barkamol insonni, sog‘lom avlodni tarbiyalashga erishamiz. Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Zero, ma’naviy barkamol insonlargina buyuk keljakni yarata oladilar.

**Kalit so’zlar:** globallashuv, g‘oya, ma’naviyat, mafkura, tahdid, immunitet, qadriyat, madaniyat, ma’rifat, urf-odat, marosim, interfaol metod, diniy-ekstremizm.

**Аннотация.** Для борьбы с различными чуждыми и вредными идеями в нашей молодежи необходимо и дальше развивать идеологический иммунитет, защищать ее от различных идеологических и идеологических угроз, воспитывать здоровые и зрелые поколения, глубоко отражающие законы развития, путем создания идеологического иммунитета в обществе. Только тогда мы сможем вырастить в будущем духовно зрелого человека и здоровое поколение. Одной из приоритетных задач нашего общества является воспитание зрелого поколения. Ведь только духовно совершенные люди могут создать великое будущее.

**Ключевые слова.** глобализация, идея, духовность, идеология, угроза, иммунитет, ценность, культура, просвещение, традиция, ритуал, интерактивный метод, религиозный экстремизм.

# **SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION**

**Jumayeva Mahbuba O'ktam qizi - Termiz State Pedagogical Institute.**

**Magistr.**

**Abstract.** In order to fight against various foreign and harmful ideas in our youth, it is necessary to further develop ideological immunity, to protect them from various ideological and ideological threats, to raise healthy and mature generations who deeply reflect the laws of development by creating ideological immunity in society. Only then will we be able to raise a spiritually mature person and a healthy generation in the future. One of the priority tasks of our society is to raise a mature generation. After all, only spiritually perfect people can create a great future.

**Key words:** globalization, idea, spirituality, ideology, threat, immunity, value, culture, enlightenment, tradition, ritual, interactive method, religious extremism.

Hozirgi kunda hayotimiz tobora o‘z-o‘zimizni anglab borayotganligimiz, umuminsoniy-ma’naviy qadriyatlariga e’tibor kuchaytirilayotganligi bilan izohlanadi. Mavjud ta’lim jarayonini har tomonlama takomillashtirmasdan turib, bu jarayonlarni ijobiy hal etib bo‘lmaydi. Chunki ma’naviyatimizda sodir bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish ko‘p jihatdan ta’lim tizimining maqsadga muvofiq tarzda bo‘lishiga bevosita bog‘liqdir. Yoshlar tafakkurini o‘sirish, berilayotgan axborotni qabul qilgan zahotiyoy uni qayta ishlab chiqib, tegishli xulosalar chiqarish bilan bog‘liq holatlarga erishish hamda zarur ko‘nikmalarni shakllantirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib turibdi.

O‘quvchi shaxsi faoliyatda, tabiatga, jamiyatga, odamlarga va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarda shakllanadi. Eng muhimi, ana shu jarayonlarda shakllangan yaxshi sifatlar o‘quvchining kelajak faoliyati, munosabatlari uchun juda zarurdir. Har bir yosh avlod tabiat va jamiyatning ma’lum rivojlanish bosqichlarida tug‘ilar ekan, u shu jamiyatda shakllangan ma’naviy muhitda voyaga

yetadi. Unda o‘zi tug‘ilgan bosqichdagi hayot taqozo etayotgan faoliyat va munosabatlarga asta-sekin kirishib ketishi uchun ruhiy, ma’naviy va jismoniy imkoniyatlar mavjuddir. O‘zbek oilasi zimmasiga yosh avlodni har tomonlama mukammal shaxs qilib tarbiyalashdek yuksak mas’uliyatli vazifa yuklatilgan. Eng yuksak insoniy his-tuyg‘ular, ezgu-niyatlar, betakror ma’naviyat, iqtidor, aql-zakovat, salohiyat ham oila bag‘rida tarkib topadi. Oilada yosh avlod xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. Maktabda esa bu tarbiyani amalga oshirish uchun tizimli ish tashkil etiladi. Avdulla Avloniyning ta’lim - tarbiyaga oid asarlaridan biri bo‘lgan 1913-yilda yozilgan «Turkiy guliston yoxud ahloq» kitobida yoshlarda ilk yoshdan boshlab axloq va odob tarbiyasini berish kerakligini ta’kidlanadi. Uningcha yoshlarda axloqiy me’yorlarning tarkib topishida muhit, sharoit va kishilar g‘oyatda muhim rol o‘ynaydilar. «Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni go‘zallandurmak, zehnimizni ravshanlashdurmak lozim ekan»<sup>1</sup>.

Bu fazilatlar avvalo o‘qituvchining o‘zida shakllangan bo‘lishi zarur. Shundagina bunday fazilatlarni yoshlarda tarbiyalashga kompetentli bo‘ladi. Buning uchun u ma’naviy – axloqiy tarbiya vazifalarini aniq tasavvur qilishi lozim.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlarda ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
2. Ularda ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
3. Yoshlarda ma’naviy-axloqiy xulq-atvor ko‘nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko‘ra inson ongingin jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o‘z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog‘liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas’uliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimliligi, mustahkam ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘u va xislatlarni shakllantirish, yoshlar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborni namoyon

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T., “O‘qituvchi”, 1992 y. 13-bet.

etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Yoshlar anglashi va uni chuqur o'zlashtirishi zarur bo'lgan masalalardan biri ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan ta'lim-tarbiya mazmunida tub o'zgarishlar yuz berganligidir.

Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o'zgalar va o'zining hayoti ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud.

Bundan tashqari ta'lim muassasasida insonga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak axloq, mehnatsevarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jinsiy tarbiya, mehnat tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish, ayniqsa, zarurligini kundalik hayot tarzida yanada yaqqol namoyon etmoqda.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqeа-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid

tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko‘ra ma’naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag‘bat bilan hosil bo‘ladigan faoliyat eng asosiy bo‘lib hisoblanadi.

Shuningdek, o‘quvchida ma’naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo‘lishi shart. Demak, ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o‘quvchi tomonidan axloqiy me’yor va tamoyillar mohiyatini o‘rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

## XULOSA

Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda yoshlar xatti-harakatlarida ko‘zga tashlanadigan salbiy odatlar – jamoat joylarida qattiq gapirish, qo‘pol so‘zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o‘ylamay gapirish, ishonchli bo‘lmagan hamda dalillar bilan tasdiqlanmagan voqeа-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhbatini bo‘lish, qo‘lini silkitib gapirish kabilarning bartaraf etib borilishiga alohida e’tibor qaratish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O,zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O’zbekiston. 2016.B-14.
2. Ташметов, Т. Х. (2020). Миллий ғояни ёшлар онгига сингдиришнинг замонавий усуллари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 326-331.
3. Tashmetov, T. K. (2020). The importance of the use of innovative technologies in raising the spirituality of young people. Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal, 6(11), 25-27.
4. Tashmetov, T. X. (2020). Prospects for relying on the basis of the national idea in protecting young people from hard and harmful ideas. International Journal For Innovative Engineering and Management Research, 9(11), 81-86.
5. Ташметов, Т. Х. (2020). Ёшларга берилаётган имкониятларнинг тарбиядаги аҳамияти. “Science and Education” Scientific Journal, 1(7), 617-624.